

O'ZBEKISTON TASHQI SAVDOSINING HOLATI, TARKIBI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Jabborberganova Sevara Nurbek qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
sevarajabborberganova7982@gmail.com. +998-88-042-06-26

Jumabayeva Kumush Botir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20039712>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichlari bo'yicha tahlil qilingan. Tahlil davomida O'zbekistonning eksport va importning asosiy tarmoqlari va hajmi, hamkor davlatlari va ular bilan savdo aloqalari, mamlakatning tashqi savdo faoliyati, shuningdek, ularning muammo va yechimlari haqida o'rganilgan. Maqolada statistik ma'lumotlar va amaliy misollar asosida iqtisodiy rivojlanishning istiqbollari va hozirgi holati haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'z: Eksport, import, tashqi savdo faoliyati, hamkor davlatlar, savdo aloqalar,

STATE, STRUCTURE, AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF UZBEKISTAN'S FOREIGN TRADE

Jabborberganova Sevara Nurbek qizi

Student at Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan
sevarajabborberganova7982@gmail.com. +998-88-042-06-26

Jumabayeva Kumush Botir qizi

Basic Doctoral Student at the National University of Uzbekistan named after Mirzo
Ulugbek

ABSTRACT: This article analyzes the stages of Uzbekistan's development since independence. The analysis examines the main sectors and volumes of Uzbekistan's exports and imports, its partner countries and trade relations with them, as well as the country's foreign trade activities, including existing challenges and their possible solutions. Based on statistical data and practical examples, the article draws conclusions about the current state of economic development and its future prospects.

Key words: Export, import, external trade activity, trade partner countries, trade relations

СОСТОЯНИЕ, СТРУКТУРА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ УЗБЕКИСТАНА

Джабборберганова Севара Нурбек кизи

Студентка Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
sevarajabborberganova7982@gmail.com. +998-88-042-06-26

Жумабаева Кумуш Ботир кизи

Базовый докторант Национальный университет Узбекистана имени Мирзо
Улугбек

АННОТАЦИЯ: В данной статье проанализированы этапы развития Узбекистана после обретения независимости. В ходе анализа рассматриваются основные отрасли и

объемы экспорта и импорта страны, её государства-партнёры и торговые связи с ними, а также внешнеторговая деятельность, включая существующие проблемы и пути их решения. На основе статистических данных и практических примеров в статье делаются выводы о текущем состоянии экономического развития и его перспективах.

Ключевые слова: Экспорт, Импорт, Внешнеторговая деятельность, Страны-партнёры, Торговые связи

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin yanggi iqtisodiy tizimga ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li murakkab hamda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon hosiblanib, asosan uzoq muddatli strategiyaga ega islohotlarni talab qiladi. O'zbekiston 1991-yilda O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida birinchilardan mustaqil bo'lgan davlat hisoblanadi va O'zbekiston iqtisodiyotni davlatning asosi deb hisoblagan. 1991-yildan boshlab O'zbekiston o'z iqtisodiy modelini ya'ni "O'zbek modeli" ni shakllantirishga kirishgan. Mustaqillikdan keyin tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va import tarkibini takomillashtirish ustuvor vazifaga aylangan. Hozirgi kunda O'zbekistonning savdo hamkorlari soni ortib, uning tashqi savdo geografiyasi kengayib bormoqda.

Ushbu tadqiqot dolzarb ahamiyatga ega, chunki bugungi kunda tashqi savdoni rivojlantirish mamlakat uchun muhim hisoblanadi, va u mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiladi. Eksportni ko'paytirish, importni yo'lga qo'yish va yangi savdo hamkorlarni toppish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, jahon bozorida o'zgarishlar, narxlarning tebranishi va logistika muammolari tashqi savdoga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tashqi savdoning hozirgi holatini o'rganish, muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini toppish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. "O'zbekiston tashqi savdosining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari" mavzusi doirasida iqtisodiy nazariya tamoyillari, asosan xalqaro savdo nazariyalari tahlil qilinadi. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida mamlakat tashqi savdosining shakllanish omillari va rivojlanish tendensiyalari baholanadi. Tadqiqot jarayonida analitik va statistik tahlil usulidan foydalaniladi. O'zbekistonning tashqi savdosining hozirgi holati chuqur tahlil qiliniadi, uning tarkibiy o'zgarishlari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari ilmiy asosda yoritib beriladi. Ma'lumotlar manbalariga O'zbekiston Respublikasi davlat statistika organlari, Markaziy bank, xalqaro tashkilotlar (JB, XVJ) hamda hisobotlar ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Adabiyotlar sharhi. N.A.Shakirovaning maqolasida asosan O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati va savdo statistikasi so'nggi yillarda dinamik rivojlanish tendensiyasi haqida hamda iqtisodiyotni yanada modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro bozorlarda barqaror o'rin egallash maqsadida bir qator takliflarni amalga oshirish muhimligi haqida ta'kidlab o'tgan. U "O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining jadal rivojlanishi iqtisodiyotning ochiqligi, savdo aylanmasining kengayishi va xalqaro hamkorlikning kuchayishi bilan izohlanadi. Ammo global bozorlardagi o'zgarishlar, logistika tizimidagi ayrim cheklovlar va eksport tarkibining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi hali ham dolzarb muammolar bo'lib qolmoqda"¹

¹ N.A.Shakirova "O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati va savdo statistikasi", International journal of scientific researchers. ISSN: 3030-332X 2025-yil Dekabr (578-579-b)

A.N.Qodirovning maqolasida iqtisodiyotda raqamli transformatsiya, yashil energetikaga o'tish, eksportni diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash kabi zamonaviy tendensiyalarning tobora kuchayib borayotgani haqida ta'kidlab o'tilgan. U “Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tizimli islohotlar asosida yangi tarmoqlar shakllandi, xalqaro hamkorlik kengaydi. Raqamli transformatsiya, yashil energiya va innovatsion texnologiyalar kelgusi rivojlanish yo'nalishlari sifatida belgilangan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub burilishlar amalga oshirildi. Ilk yillarda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga moslashtirish, inflyatsiyani jilovlash, strategik tarmoqlarni davlat qo'lida saqlab qolish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqalibarqaror taraqqiyotga asos solindi”².

M.T.Toshevning maqolasida asosan O'zbekiston va xorijiy davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, tashqi savdo faoliyatini liberallashtirish, eksport geografiyasini kengaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va boshqa ko'plab masalalar ko'rib chiqiladi. U “Mustaqillik yillarida olib borilgan izchil siyosat va islohotlar natijasida O'zbekistontashqi savdo faoliyati sezilarli rivojlandi. Tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari o'sib bormoqda. Mamlakatimiz tobora xalqaro savdoga integratsiyalashib bormoqda. O'zbekistonning tashqi savdo sohasida sezilarli yutuqlar bilan birga ayrim muammolar hamsaqlanib qolmoqda. Tashqi savdo balansining manfiyligi, eksport va import tarkibidagi ayrim nomutanosibliklar, hududiy taqsimotdagi disbalans kabi masalalar hal etilishi zarur. Yaqin istiqbolda tashqi savdoni yanada erkinlashtirish, eksportni rag'batlantirish, import siyosatini maqbullashtirish va xalqaro savdo tizimiga integratsiyani chuqurlashtirish kabi vazifalar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bu boradagi sa'y-harakatlar mamlakatimiz milliy manfaatlariga va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi”³.

L.F.Pardayevning tadqiqot ishida O'zbekiston tashqi savdo aloqalarining hozirgi holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil etilgan hamda iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlarida Markaziy Osiyo davlatlarining o'rnini haqida, uning ijobiy hamda salbiy tomonlarini ochib berilgan. U “savdo aloqalari mintaqada integratsion aloqalar rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Savdo aloqalarining rivojlanishi esa Markaziy Osiyoda bosqichma-bosqich erkin savdo zonalari, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va yagona iqtisodiy hudud shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi”⁴.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston tashqi savdosi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, iqtisodiy ochiqlik darajasi ortib bormoqda. So'nggi yillarda tashqi savdo aylanmasi sezilarli darajada oshib, eksport va import hajmlarida barqaror o'sish kuzatilmoqda. Eksport tarkibida oltin, gaz, paxta kabi mahsulotlar yetakchi o'rinni egallab kelmoqda, shunga qaramasdan tayyor mahsulotlar, ayniqsa to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati mahsuloti ulushi ham ortib bormoqda.

1-jadval

² A.N.Qodirov “O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari”, Conference of modern science & pedagogy / Washington / The USA (489-b)

³ M.T.Toshev “Mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi savdosi: holati va istiqbollari”, Worldly knowledge, International journal of scientific researchers. ISSN: 3030-332X 2024. (659-b)

⁴ L.F.Pardayev “O'zbekiston tashqi savdosining tarkibi va iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari”, TADQIQOTLAR jahon ilmiy metodik jurnali, SSN:3030-3613, №35. 01.04.2024, <http://tadqiqotlar.uz>

O'zbekistonda 2020-2025-yillardagi eksport-import dinamikasi⁵

Yillar	YaIM mlrd. Dollar	Eksport mlrd. dollar	Import mlrd. dollar	Eksport-import saldosi mlrd. dollar	Eksportning YaIMdagi ulishi, foizda	Importning YaIMdagi ulishi, foizda
2020	60.2	15 128	21 104	-5 976	25.1	35.0
2021	69.6	16 611	25 461	-8 850	23.8	36.5
2022	81.1	19 309	30 671	-11 362	23.8	37.8
2023	90.9	24 426	38 141	-13 715	26.8	41.9
2024	101.6	25 548	42 205	-16 657	25.1	41.5
2025	115.2	28 100	45 300	-16 700	24.4	39.3

Ushbu statistik ma'lumotlar O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi savdo aloqalarida jadal o'sish va tarkibiy o'zgarishlar davrini boshdan kechirayotganini ko'rsatadi. 2020-yildagi pandemiya cheklovlaridan so'ng, 2021-yildan boshlab tashqi savdo aylanmasida barqaror tiklanish va o'sish tendensiyasi kuzatildi. Xususan, 2025-yilga kelib eksport hajmi 2020-yilga nisbatan qariyb 1,8 barobarga oshib, 28,1 mlrd dollarga yetdi. Bu o'sish mamlakatning eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar ulushini oshirish borasidagi islohotlari natijasidir. Lekin, dinamikada import hajmining eksportga nisbatan tezroq o'sishi natijasida tashqi savdo balansidagi manfiy saldo (defitsit) saqlanib qolmoqda. 2025-yilda bu ko'rsatkich -17,2 mlrd dollarni tashkil etdi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, ushbu defitsit "investitsion xarakterga" ega, chunki importning asosiy qismini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan mashina va uskunalarni tashkil etadi. Eksport va importning YaIMdagi ulushi tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyoti ochiqlik darajasi oshib bormoqda. Importning YaIMdagi yuqori ulushi (39,3%) ichki bozordagi texnologik ehtiyojni ifodalasa, eksportning 24-25% atrofida barqarorlashishi milliy mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi oshib borayotganidan dalolat beradi. 2026-yilga borib eksportning 32,4 mlrd dollargacha o'sishi prognoz qilinishi iqtisodiy barqarorlikning ijobiy ko'rsatkichidir.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tashqi savdosi so'nggi yillarda barqaror rivojlanib, iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Eksport va import hajmlarining oshishi ijobiy natija bo'lsa-da, eksportda xomashyo ulushining yuqoriligi muammo bo'lib qolmoqda. Shu bois eksportni diversifikatsiya qilish muhimdir. Tashqi savdoni rivojlantirish uchun ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, yangi bozorlarni egallash va logistika tizimini takomillashtirish zarur. Shuningdek, mahsulot sifatini oshirish va raqamli savdoni rivojlantirish orqali mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasi yillik statistika to'plami" ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. N.A.Shakirova “O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati va savdo statistikasi”, International journal of scientific researchers. ISSN: 3030-332X 2025-yil Dekabr (578-579-b)
2. A.N.Qodirov “O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari”, Conference of modern science & pedagogy / Washington / The USA (489-b)
3. M.T.Toshev “Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tashqi savdosi: holati va istiqbollari”, Worldly knowledge, International journal of scientific researchers. ISSN: 3030-332X 2024. (659-b)
4. L.F.Pardayev “O‘zbekiston tashqi savdosining tarkibi va iqtisodiy hamkorlik yo‘nalishlari”, TADQIQOTLAR jahon ilmiymetodik jurnali, SSN:3030-3613, №35. 01.04.2024, <http://tadqiqotlar.uz>
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistika to‘plami”. (stat.uz) 04.05.2026 y